

## BOSHLANG‘ICH PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUV DASTURINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI

**Rahmanova Jamila Bekmirzayevna**

*Namangan shahar 2-son kasb-hunar maktabi*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich professional ta’lim muassasalarida o‘quv dasturini ishlab chiqish masalalari muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** yuklama, o‘quv dastur, ta’lim, metod, dars rejası, modul, amaliy mashg‘ulot, ko‘nikma.

### **KIRISH**

So‘ngi yillarda O‘zbekiston o‘zining xalqaro immijini yaratish va xalqaro nufuzini oshirish yo‘lida bir qancha halqaro reytinglarni mamlakatga tadbiq etmoqda.

Jumladan o‘rta-maxsus ta’lim tizimiga ham tadbiq etilmoqda.

Ma’lumki, o‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizdagi professional ta’lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashmaganligi, o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to‘laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlariga to‘sinqilik qilib kelayotgan edi.

Respublikamizda tayyorlanayotgan kadrlar jaxon talablariga xam javob berishi dolzarb masalalardan biriga aylangan.

### **ASOSIY QISM**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralarini to‘g‘risida”gi 287-sonli qarori bilan Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi amal qilishining huquqiy va tashkiliy asoslari hamda tartibini, shuningdek ishsizlar va band bo‘lmagan aholini kasbga

tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish tartibini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish milliy tizimi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Nizomda quyidagi tushunchalar qo‘llanilib, ularga ta’rif berilgan:

**milliy malakalar tizimi** — ta’lim, o‘qitish, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi tomonidan mehnat bozorining malakali xodimlarga ehtiyoji va malakali ishchi kuchi taklifining butun umr davomida muvofiqligini ta’minlovchi huquqiy va institutsional tartibga solish mexanizmlari majmui;

**malaka** — xodim yoki ishga (kasbga) talabgorning, uning bilimi, mahorati va ko‘nikmalarining tegishli kasb va mutaxassislik bo‘yicha aniq mehnat funksiyalarini sifatli bajarishga tayyorgarlik darajasi;

**kasbga o‘qitish** — muayyan mehnat funksiyalarini bajarish uchun o‘quvchiga zarur bo‘lgan bilim, mahorat va ko‘nikmalarini egallashga qaratilgan ta’lim turi;


**bilimlar** — o‘qitish va shaxsiy tajriba orqali mehnat faoliyati uchun ahamiyatli ma’lumotni o‘zlashtirish natijasi.

Ko‘rib turganimizdek Milliy malaka tizimida ta’limning xususan o‘rtalbo‘g‘in xodimlarini tayyorlovchi professional ta’limning roli muxum.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtal maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 4-sentabrda “Professional ta’lim muassasalari uchun “O‘qitish materiallari to‘plamlarini yaratishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 465-son buyrug‘i professional

### **PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARI UCHUN O‘QITISH MATERIALLARI TO‘PLAMLARINI YARATISHNING ME’YORIY HUQUQIY ASOSLARI**

#### **O‘qitish materiallari to‘plamining tarkibiy shakli quyidagilardan iborat**



ta’lim muassasalari uchun o‘qitish materiallari to‘plamini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Unda berilgan tavsiyalar professional ta’lim muassasalarida o‘quv rejalarini asosida o‘qitiladigan gumanitar, umumkasbiy, maxsus fanlar va o‘quv amaliyotlari uchun o‘qitish materiallari to‘plamini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Namunaviy o‘quv reja malaka talablari asosida kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha ishlab chiqiladi. Bunda malaka talablarida belgilangan bloklar va fanlar hamda o‘quv rejaga qo‘yiladigan talablar asosida amalga oshiriladi. Fan (modul)ning O‘quv dasturning mazmuni rejasidagi mavzular mazmuni tuziladi. Buni quyida Namangan shahar 2-son kasb-hunar maktabi Savdo jarayonlari texnologiyasi va uni tashkil etish o‘quv fani doirasida tuzilgan dasturni misolida ko‘rib chiqamiz.

<b>№</b>	<b>Mavzuning nomi</b>	<b>Mavzuning qisqacha mazmuni</b>	<b>Ja mi</b>	<b>O‘ qiti sh ni tassha hkikli liy</b>	<b>Mu sta qil ta’l im</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>
1.	Savdo jarayonlari texnologiyasi va uni tashkil etish bo‘yicha ish o‘rinlarini tashkil etish va boshqarish jarayonlari.	Savdo jarayonlari texnologiyasi va uni tashkil etish jarayoni. Savdo tarmog‘ining xususiyatlari. Savdo turlari, Savdo mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va tayyorlash. Savdo tarmog‘ining ixtisoslashuvi. texnik xizmat ko‘rsatish. Sanitariya va gigiyena qoida va me’yorlarini o‘rnatish va ularning bajarilishi ustidan davlat sanitariya davlat nazoratini olib borishning Respublika huquqiy-me’oriy asoslari to‘liq yaratilgani.	2	N	1
2	Xaridorlar hisobkitob usullari.	bilan qilish Kassa apparatlariga qo‘yiladigan talablar. Hisobkitob qilish usullari va qoidalari va xaridorlar.	4	N.A	2
3	Savdo jarayonida kassaturkumlanishi va shartli belgilanishi. Elektron kassa hujjatlarini yuritish vasmashinalari. Ularning tiplari, tuzilishi va texnik hisobga olish.	Savdoda nazorat kassa mashinalarini ahamiyati va uning bajaradigan funksiyalari. kassa mashinalarini Savdo jarayonida kassaturkumlanishi va shartli belgilanishi. Elektron kassa hujjatlarini yuritish vasmashinalari. Ularning tiplari, tuzilishi va texnik hisobga olish. tavsifi. Nazorat kassa mashinalarining ishlatish qoidalari, kassa xujjalalarining xillari va rasmiylashtirish qoidalari, nazorat kassa mashinalariga bo‘lgan ehtiyojini hisoblash	6	N.A	2

Jadvalni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak 1-ustunga mavzuning tartib raqami, 2- ustunga mavzu, 3-ustunga **Mavzuning qisqacha mazmuni**, 4-ustunga darsning jami soati, 5- ustunda agar “N”, agar amaliy mashg‘ulot bo‘lsa “A” belgisi katta xarflarda qo‘yiladi, 5-ustunda o‘qitish natijalari, yani yoritiladigan masalalar, 6-ustunda esa har bir mazuga ajratilgan soat aks ettiriladi.

## XULOSA

O’quv dastu asosidagi taqvim mavzular rejasi ishchi o‘quv rejada ko‘rsatilgan soatni barchasi uchun to‘liq ishlab chiqiladi (masalan 180 soatli fan (modul)o‘quv dasturi birinchi bosqichda 60 soat va ikkinchi bosqichda 120 soat o‘tilishi belgilangan. Ammo aksariyat o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’lim ustalari faqatgina 60 soat (birinchi bosqich) uchun ishlab chiqiladi qolgan 120 soati (ikkinchi bosqich uchun keyingi yilda ishlanadi) uchun ishlanmaydi bu noto‘g‘ri hisoblanadi). To‘plam ham barcha mavzular uchun rasmiylashtiriladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.  
4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldaggi “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruvi hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 4-sentabrda “Professional ta’lim muassasalari uchun “O‘qitish materiallari to‘plamlarini yaratishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 465-son buyrug‘i
5. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.